



PEDAGOGIK ISLOHOTLAR

..... VA ULARNING YECHIMLARI.....

YO'NALISHLARIMIZ:

- | | |
|------------------------------|--------------------------------|
| 1. Tibbiyot fanlari | 6. Iqtisod fanlari |
| 2. Pedagogika fanlari | 7. Psixologiya fanlari |
| 3. Ijtimoiy-gumanitar fanlar | 8. San'at va madaniyat fanlari |
| 4. Aniq fanlar | 9. Filologiya fanlari |
| 5. Tabiiy fanlar | 10. Texnika fanlari |

<https://wordlyknowledge.uz>



BOLALAR NUTQIGA XOS SEMANTIK PRESUPPOZITSIYA

Qurbonova Munavvara Abdujabborovna

Alisher Navoiy Nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrası professori,

filologiya fanlari doktori

E-mail: munavvara2013@yandex.ru

Annotatsiya: Maqolada tildagi yashirin axborotga ishora qiluvchi birliklarning semantic tabiati yoritilgan. Unda bolalar nutqida semantic presuppozitsiyaning yuzaga kelish sabablari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Til, bolalar nutqi, semantika, pragmatika, presuppozitsiya.

Annotation: The article describes the semantic nature of units referring to hidden information in the language. It describes the reasons for the emergence of semantic presupposition in children's speech.

Key words: Language, speech of children, semantics, pragmatics, presupposition.

Tilning ifodaviy imkoniyatlarini namoyon etishda implikatura birliklari muhim o'rin tutadi. Ularning semantik va pragmatik tabiati presuppozitsiya ifodasida yaqqol aks etadi. Y.V.Paduchevaning fikricha, gapning semantik prezumpsiya (ya'ni presuppozitsiya)si S – tinglovchi chin deb hisoblashi lozim bo'lgan, u uchun tushunarli bo'lgan hukmdir [1, 7]. Jumlaning semantik jihatdan tushunarli bo'lishini ta'minlovchi komponenti semantik presuppozitsiya bo'lib, u jumla tarkibida qo'llangan maxsus til birliklari orqali reallashadi. Demak, tilshunoslikda so'z ma'nosi bilan bog'liq holda shakllanadigan presuppozitsiya semantik presuppozitsiya sifatida e'tirof etiladi. Masalan, *qultum* leksemasi inson tafakkurida *suyuqlik* leksemasini ham jonlantiradi. Ushbu leksema orqali suyuqlikning ham anglashilishi uning ma'no komponenti ("Bir yutishli suyuqlik miqdori, bir yutum") [2, 203] bilan aloqador.

Shunisi xarakterliki, belgi bildiruvchi birliklardan hosil bo'lgan yasama so'zlarda ham presuppozitsiyaga ishora butunlay o'chib ketmaydi. Jumladan, *ozod bo'lmoq*, *iflos bo'lmoq*, *kir bo'lmoq*, *yomon bo'lmoq*, *yaxshi bo'lmoq* kabi qo'shma so'zlarning belgi bildiruvchi tarkibiy komponenti orqali gapda presuppozitsiyaga ishora yuzaga keladi. Shu sababli bunday birliklar ishtirokida tuzilgan sintaktik qurilmalar doim semantik jihatdan murakkablashadi. Masalan, "– *Abbosov, nega sen kir galstuk taqib kelding? – so'radi muallim. – Yangisini taqsam, kir bo'lib qoladi-da, – hazilga olib dedi Akrom*" (X.To'xtaboyev. "Sariq devni minib") misolida qo'llangan *kir bo'lib qolmoq* leksemasi "*Yangi galstugin toza*" presuppozitsiyasini hosil qiladi.

Semantik tabiati orqali presuppozitsiyaga ishora qiluvchi leksemalar bolalar nutqida keng qo'llanadi. Bunday leksik birliklar sirasida fe'l leksemalar alohida o'rin tutadi. Ayrim fe'l leksemalar presuppozitsiya orqali harakatga qadar amal qilgan holatga ishora qiladi. Masalan, bir holatdan ikkinchi holatga o'tish harakatini anglatuvchi *kengaymoq* (*tor bo'lgan*), *tuzalmoq* (*kasal bo'lgan*), *qarimoq* (*yosh bo'lgan*), *pasaymoq* (*baland bo'lgan*) fe'l leksemalarida harakatga qadar amal qilgan holat haqida ma'lumot beruvchi

presuppozitsiyalarga yo‘l ochiladi. Presuppozitsiya ayni leksik birliklarning antonimik xususiyati orqali yuzaga chiqadi. Bolalar nutqida ham bu turdagi fe‘llar ko‘plab uchraydi. Qiyoslang:

– *Lazakat xola oyimni tuzatadi-ya?...* (O‘.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”) (*Oyim kasal*)

– *Dada, oyim kasal bo‘lib qoldilar!* (O‘.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”) (*Oyim sog‘ edilar*)

Bolalar nutqida *o‘chirmoq* (*chizilgan*), *yopishtirmoq* (*yirtilgan*), *tuzatmoq* (*singan*) kabi muayyan harakat va uning amal qilishiga turtki bergan tashqi omillar haqida ma‘lumot tashuvchi fe‘l leksemalar ham ko‘plab uchraydi. Bunday leksemalar ifoda etgan harakat uni bevosita yuzaga keltirgan voqyelikka ishora qilib turadi. Masalan, Toshkent shahar shevasida so‘zlashuvchi Mehrimoh Esonova (4 yosh) nutqida qo‘llangan “*Qo‘g‘irchog‘immi tuzatib bering*” gapidagi *tuzatmoq* leksemasi orqali “*Qo‘g‘irchog‘im sinib qoldi*” presuppozitsiyasini anglash mumkin bo‘ladi.

Yoki *qochmoq* leksemasi ifoda etgan harakat orqali uni keltirib chiqargan *quvish* harakatiga ishora sezilarli. Bu holat *qochmoq* leksemasi orqali *quvlamoq* presuppozitsiyasining ifodalanishiga yo‘l ochadi. Boshqacha aytganda, leksema anglatgan harakatning amal qilishiga turtki bergan omil shu leksemaning presuppozitsiyasi sifatida anglashilib turadi. Masalan:

– *Oyi, ukam itdan qochdi.* (Umid Abdullaev, 12 yosh) (*Ukamni it quvladi*)

Ayrim fe‘l leksemalar semantikasida harakat asosida yuzaga kelgan natijaviy holatga ishora kuzatiladi. Masalan, *qoraymoq* (*qora*), *qizarmoq* (*qizil*), *oqarmoq* (*oq*), *ko‘paymoq* (*ko‘p*), *kattalashmoq* (*katta*) kabilar. Bunday fe‘l leksemalar belgi bildiruvchi asoslardan hosil bo‘lgani uchun ularning ma‘nosi yasama so‘z tarkibida ham butunlay o‘chib ketmaydi. Bu ma‘no presuppozitsiya yordamida leksema semantikasi orqali anglashilib turadi.

Mazkur turdagi fe‘l leksemalar ham bolalar nutqida faol qo‘llanib, turli presuppozitsiyalarni hosil qiladi. Masalan:

1. *Uy burchagidagi eski palak lopilladi-da, dadam chiqib keldi. Yuzlari qizargan...* (O‘.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”) (*Yuzlari qizil*)

2. – *Do‘xtirning aytishicha, uning ko‘zi sarg‘aygan ekan.* (Davron Baxtiyorov, 13 yosh) (*Ko‘zi sariq*)

Holat fe‘llari haqida fikr yuritir ekan, professor R.Rasulov bu kabi fe‘llarni harakat natijasini anglatuvchi holat fe‘llari deb hisoblaydi. U harakat natijasi bo‘lgan holat fe‘llarida holatga muayyan harakatdan yoki biror holatdan o‘tilishi, holatga o‘tishda harakatning ba‘zan aniq “ko‘rinishga” ega bo‘lishi, ba‘zan aksi bo‘lishini, bunda harakat tashqi ta’sirga ko‘ra yashirinligi, ammo aslida mavjudligi bilan muhim ekanini ta’kidlaydi [3, 12]. U harakat natijasini anglatuvchi bu kabi holat fe‘llarining quyidagi turlarini ajratadi: a) harakatdan birato‘la holatga o‘tishni ifodalovchi fe‘llar; b) harakat natijasida bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishni ifodalovchi fe‘llar [3, 12-15].

Olim qayd etgan harakat natijasini anglatuvchi bunday fe‘l leksemalar orqali nutqda bir vaqtda harakat va natijaviy holatni aks ettiruvchi propozitsiyalar anglashiladi. Albatta, keyingi propozitsiya presuppozitsiya orqali yashirin ifodalanadi.

Bolalar nutqida qo‘llangan umumtil leksikasiga oid ba’zi fe’l leksemalar harakatning tabiiy asosiga ishora qilish asosida presuppozitsiyani shakllantiradi. Bunday leksik birliklarda aks etgan harakatning yuz berishi uchun tabiatda boshqa qandaydir xatti-harakat amal qilishi lozim. Masalan:

Ona telefonda o‘g‘lini koyib shunday dedi:

- *Men senga aytdim-ku, sutning toshishiga qarab turgin deb.*
- *Men soatga qarab turdim, axir, – xafa bo‘lganicha gapirdi o‘g‘il.*
- *Sut soat 15 dan 13 daqiqa o‘tganda **toshdi**. (“Bir safda”)*

Ushbu dialogik diskursda qo‘llangan *toshmoq* fe’l leksemasi anglatgan harakatning amal qilishi uchun sut qaynab chiqishi lozim. *Toshmoq* fe’l leksemasiga xos bu jihat uning semantikasi orqali anglashilib turadi. Shu bois *toshmoq* fe’l leksemasi bir vaqtda ayni harakatning amal qilishi sharti hisoblangan voqyelikka ham ishora qiladi. “**Sut soat 15 dan 13 daqiqa o‘tganda toshdi**” gapidan anglashiluvchi “*Sut qaynadi*” presuppozitsiyasi *toshmoq* fe’lining harakatning tabiiy asosiga ishora qilib turishi orqali yuzaga chiqadi.

Bolalar nutqida antonimik xususiyati asosida presuppozitsiyani shakllantiruvchi leksik birliklar ham keng qo‘llanadi. Jumladan, *quritmoq* (*ho‘l bo‘lgan*), *yopmoq* (*ochilgan*), *isitmoq* (*sovigan*) fe’l leksemalari lug‘aviy ma’noni ifodalashdan tashqari bir vaqtda o‘z antonimik juftiga ishora qilish xususiyatiga ham ega. Bu holat ayni turdagi birliklarning presuppozitsion xususiyatga daxldor ekanidan dalolat beradi. Masalan, “*Oyijon, ko‘ylagimni quritib bering*” gapida qo‘llangan *quritmoq* leksemasi “*Ko‘ylagim ho‘l bo‘ldi*” presuppozitsiyasini yuzaga keltiradi.

D.Lutfullayeva ham fe’l leksemalarning semantik tabiati orqali presuppozitsiyaga yo‘l ochilishini qayd etadi. Uning fikricha, o‘zaro antonimik munosabatdagi fe’l leksemalarning nutqda bir-biriga ishora qilib turishida kontekst, nutq vaziyati taqozosi hamda til egalarining bu fe’llar semantikasiga oid umumiy bilimlari muhim o‘rin tutadi. Agar nutqiy vaziyat *kamaymoq* fe’li orqali ko‘paymoq harakatining va aksincha, *ko‘paymoq* fe’li orqali kamaymoq harakatining ochiq ifodasini taqozo etsa, gapda bu fe’llar orqali ularning ziddini aks ettiruvchi yashirin axborotga ishora shakllanmaydi [4, 152].

Xullas, bolalar nutqida leksik birliklar bilan bog‘liq holda semantik presuppozitsiya voqyelanadi. Presuppozitsiyaning ifodalanishida tilning maxsus vositalari (presuppozitsiya signallari) bilan birga, nutq vaziyati, kontekst, til egalarining nutq obyekti haqidagi umumiy bilimlari, til ko‘nikmasi kabi tashqi omillar ham ishtirok etadi. Bolalar nutqida leksik birliklar bilan bog‘liq holda quyidagi holatlarda presuppozitsiyalar ifodalanadi:

1. Leksik birlikning semantik komponentlaridan biri bevosita ifodalanganda, boshqasini yashirin tarzda ifodalovchi presuppozitsiyaga yo‘l ochiladi.
2. Leksik birlikning lug‘aviy ma’nosi asosida u anglatgan voqyea-hodisaning yuz berishiga sabab bo‘lgan, uning amal qilishiga turtki bergan omillarga ishora qiluvchi presuppozitsiyalarga yo‘l ochiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Падучева Е.В. Понятие презумпции в лингвистической семантике // <http://codenlp.ru/wp-content/uploads/201509/presumption-77.pdf>

2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006.
3. Расулов Р. Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши. – Тошкент, 2005.
4. Лутфуллаева Д. Ўзбек тили феълларининг прагматик хусусиятлари // Олима аёлларнинг фан-техника тараққиётида тутган ўрни (Республика илмий-амалий анжумани материаллари). – Тошкент: ТДПУ, 2008.